

O'QUVCHILARGA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN TO'G'RI FOYDALANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Boymatova Mahfuza Farhodovna

*Navoiy viloyati Xatirchi tumani MMTB ga qarashli 43-umumiy o'rta ta'lim
maktabi psixologi*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda o'quvchilarning ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va ota-onalarning farzand tarbiyasidagi kamchiliklari, hamda bolalarning telefon va internet tarmoqlariga qaramligining sabab va oqibatlari, hamda telefonga qaramlikni oldini olish bo'yicha psixologik tavsiyalar haqida keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** telefon, internet, ijtimoiy tarmoq, bola tarbiyasi, zamonaviy usul, internet tarmoqlari, o'ziga xoslik, zamonaviy, qobilyat, texnologik, ilm-fan, tafakkur, iqtidor, motivatsiya.*

KIRISH

Hayotimizning barcha javhalarida axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida o'quvchilarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar mustaqil ravishda o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur. Kompyuter haqiqatdan ham keng tarmoqli vazifalarni bajaradi: Radio va musiqa eshitish, filmlar ko'rish, matn terish, rasmlar va animatsiyalar yaratish, telefon va kalkulyator vazifasini bajarish, global tarmoqlarga ulanish, kompyuter o'yinlarini o'ynash va

hakazo. Barcha shakllardagi darsda va maktabdan tashqari ishlarining chuqur ichki mohiyati o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishdan ibortdir. O'quvchilarning o'qishdan tashqari ishlarga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar orqali, sinfdan va maktabdan tashqari har xil tadbirlar orqali amalga oshadi. Bugungi kunda katta extiyojga aylanib borayotgan narsa bu internet tarmoqlaridan samarali va unumli foydalanishni yoshlar ongiga singdirish, va bunda ota-ona hamda maktab o'qituvchilari hamkorlikda bolalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga faqatgina zarurat bo'lsagina telefondan foydalanishlari mumkinligini ta'kidlab bolalar ongiga singdirib borish kerak. Bugungi kunga kelib o'sib kelayotgan yosh avlodni eng yaqin do'sti bu.. ming afsuslar bo'lsinki telefon, gadjet, planshet va televizorlarga aylanib qolmoqda. To'g'ri biz bolalarga bu narsalardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yolmaymiz, lekin undan to'g'ri foydalanishni o'rgatmog'imiz lozim.

ASOSIY QISM

O'quvchilar hozirda texnologik bilimlarini kattalardan ko'ra tez hamda samarali egallamoqda va aytish mumkunki, kompyuter texnologiyasi savodxonligi bo'yicha kattalardan ustunlik ham qilishadi. Ular ta'lim jarayoni va mashg'ulotlar vaqtida o'qtuvchi nazoratida internetdan asosan ilm-fan, madaniyat va sportga oid malumotlarni oladi, o'rganadi. Bular xursand bo'ladigan ijobiy holatlar. Darslardan chiqib dars vaqtida ololmagan biron bir qiziq malumot, video rolik va shu kabi axborotni hohlagan internet kafedan hech kimning nazoratisiz ham topishi uni yuklab olishi mumkin. Kompyuter o'yinlarining bazilari o'smirlar intellektining rivojlanishiga, qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalrining shakllanishiga, mantiqiy fikirlashning oshishiga, ijodiy, ruhiy rivojlanishiga yordam beradi. Lekin hozirgi kunda jamiyatni kompyuterlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga bolalar va o'smirlarni kompyuter, internet va asosiysi kompyuter o'yinlariga haddan ortiq bog'lanib qolish holatlari hamkuzatilmoqda. Bolalar va o'smirlarda kompyuter o'yinlariga psixologik tobeylik ko'rinishiga o'tib ketmoqda.

Kompyuter o'yinlariga tobe bo'lib qolgan o'smir real hayotdan, zerikishdan, yolg'izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochish maqsadida kompyuter o'yinlariga murojaat qilishni boshlaydi. Tobelik asosida esa rohatlanishga nisbatan ehtiyoj yotadi. Mazkur tobelik har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin, biroq u o'smirlarda o'ta ta'sirli bo'ladi. Mutaxassislar tobelikning bunday turini o'ziga xos "Emotsional narkomaniya"ga taaluqli deb hisoblashadi. Kompyuterga tobelik og'ishgan xulq-atvor turlaridan biri hisoblanadi va u o'zining emotsional ruhiy kayfiyatini o'zgartirish usuli yordamida kundalik tashvishlardan qochishga intilish holati bilan ifodalanadi. Bunday paytlarda bolaning psixikasi tormozlanadi, individual shaxsiy rivojlanishdan to'xtaydi. Internet tarmoqlari va turli xil virtual o'yinlarga tobelikni ortib ketishining asosiy sabablaridan biri bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlanmasligi va ota-ona nazoratidan chetda qolib ketishi. Barcha tobiylik vositalari hattoki kompyuter o'yinlari ham ijobiy hissiyotlarni paydo qiladi (xursandchilik, baxtiyorlik, rohat, ruhiy va jismoniy yengillikni sezish) va salbiy hissiyotlarini (havotir, hafalik, aybdorlik hissi, o'zini yolg'iz his etish) bartaraf etadi. Bolalar kompyuterni bir necha marta o'ynagandan so'ng kompyuter qahromoni va undagi virtual olam, unung real hayotidagi qondirilmagan ehtiyojini qondirishga imkon berayotkanini tushunadilar. Bu kompyuter qahromonini hurmat qilishadi, uning fikrlariga qo'shilishadi, u kuchli, kuplab dushmanlari bir zumda yo'q qilib g'alaba qozona oladi. Bolalar uchun bu rolga kirish va o'zini "u" deb hisoblash yoqimlidir. Chunki ularning ko'pchiligi real hayotda o'zlarida bunday his-tuyg'uni his qilishlari qiyin. Virtual makonning xavf-xatarlaridan biri jamiyatda mavjud birliklar orasidagi masofa bo'lib, virtual makon ijtimoiy birliklar orasidagi masofani oshiradi. Bugun oilalar hayotiga yangi texnologiyalar joriy etilayotgani munosabati bilan ota-onalar va farzandlar soatlab yonma-yon o'tirmasligi ham odat tusiga aylanmoqda. Virtual maydon har qanday joyda va istalgan vaqtda mavjud. U yerda butun dunyo bo'ylab millionlab odamlar virtual ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, chatlar orqali ulanishlari mumkin. Virtual makon (internet) axborot tashkilotlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan muhim o'lchovni taqdim etadi. Virtual makonning vosita sifatida rivojlanishi va uning kundalik

hayotimizdagi ahamiyati ortib borishi undan foydalanish uchun axborot tashkilotlari hamda uning o'lchov birligini aniqlashni talab qilmoqda. Axborot-psixologik xavfsizlik, avvalo, bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalaridan, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalardan asrashdir. Bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, informatsion-psixologik xavfsizligiga ehtiyoj, eng avvalo, bevosita inson va jamiyat, inson va davlat, shaxs va uning daxlsizligi, millat va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, tarixiy va madaniy meros, avlodlarga ta'sir etuvchi buzg'unchi g'oyalar va tajovuzkor mafkuralarning mavjudligidan kelib chiqadi. Qolaversa, axborot-psixologik xavfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta'sirchan choralari ko'rilmasa, destruktiv g'oyalar milliy xavsizlikka putur yetkazishi mumkin. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta'sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotgani shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta'sir o'tkazadi. tafakkurimizga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, hayot va undagi minglab taqdirnlarni u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli qurolga aylandi. Umuman olganda, axborot – moddiy dunyoning organizmda yoki organizmlar jamoasida aks etgan hamda ular tomonidan atrof-muhit o'zgarishlariga moslashish uchun foydalaniladigan moddiy dunyo obyektlarining aksidir. Qachonlardir ilohiy ma'no kasb etgan so'z, uning qudrati bugungi kunga kelib, dunyo taqdirini hal qilishda eng asosiy rol o'ynaydigan kuchli vosita maqomiga ko'tarildi. Fantexnika inqilobidan keyin kommunikatsion texnologiyalar hamda axborot infratuzilmalarining katta tezlikdagi taraqqiyoti, xususan, internetning paydo bo'lishi hamda uning qisqa vaqt ichida ijtimoiy hayot tarziga chuqur kirib borishi axborotni eng qimmat mahsulotga aylantirdi. Darhaqiqat, globallasuv va integratsiyalashuv sharoitida oltin, platina, javohirdan ko'ra ko'proq qiymatga ega bo'lgan - axborot jahon bozoridan munosib joy oldi. Kim axborotga egalik qilsa, u dunyoni boshqaradi, qabilidagi fikrlarni bot-bot esga olinayotgani ham bejizga emas. Bundan 4-5 asr oldin jahonda yetakchilik qilish uchun qo'shin soni, qurol-yarog' arsenali, hatto dengizdagi kemalar, umuman, harbiy salohiyatning ahamiyati katta edi.

Xulosa qilib aytganda bolalar hayotimizning mazmuni, eng muhim bo'lagi ekanini aytishdan charchamasligimiz kerak. Albatta kompyuter va internet orqali begona insonlar masofadan farzandimiz ruhiyatini bilib olayotgan bo'lsayu, nahotki biz ularni har kuni har soniya ko'rib, kuzatib yurgan, qo'lidan yetaklab katta qilayotkan ota-onasi bo'la turib ularning pok va beg'ubor qalblarini, orzu istaklarini va extiyojlarini anglay olmasak... degan savolni har birimiz o'zimizga berishimiz kerak. Bolalarni yoshligidan axborot savodxonligiga va yaxshi yomonni, oq-qorani ajrata olish hamda o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish kerakligini unutmasligimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Deti s zaderjkoy psixicheskogo razvitiya. T. A. Vlasova.N.A.Sipina tahriri ostida. M., 1984
2. K.S.Lebedinskaya, G.P.Bartbin, M.T.Dunayeva. Aktualniye Problem diagnostiki zaderjki psixicheskogo razvitiya detey.M.,Pedagogika, 1982
3. S.D.Zabramnaya. Otkor umtvenno otstalix detey v spetsialniye uchrejdeniya.M., Prosvesheniye, 1988
4. G.B.Shoumarov, K.K.Mamedov. Psixik rivojlanishi sustlashgan bolalarning psixologik xususiyatlari va differensial diagnostikasi.Toshkent, 1987
5. K.K.Mamedov, G.B.Shoumarov, V.P.Podobed.Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. T., 1999 7.Mustafaqulova D. I., Usanov U.N.
- 6.D.I.Mustafaqulova. Darslarda muammoli o'qitish texnologiyasi Ta'lim texnologiyalari 2016. Toshkent.